# III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI



## 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar) larining umumiy hajmi 36 543,6 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2024- yilning shu davriga nisbatan 104,4 % ga o‘sdi. Jumladan, dehqonchilik va chorvachilik hamda ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 35 509,2 mlrd so‘mni (o‘sish sur’ati 104,7 %), ovchilik sohasida ko‘rsatilgan xizmatlar 1,1 mlrd so‘mni (100,3 %), o‘rmon xo‘jaligida 692,7 mlrd so‘mni (103,4 %), baliqchilik xo‘jaligida 341,7 mlrd so‘mni (77,8 %) tashkil qildi. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)lari hajmining o‘sishi asosan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohada ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli darajada ortishi bilan bog‘liqdir.

### Viloyatda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi

*(yanvar-dekabr, mlrd so‘m)*

| | *2023- yil* | *2024- yil* | *2025- yil* |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **27 860,9** | **30 411,4** | **36 543,6** |
| shu jumladan: | | | |
| Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar | 27 092,4 | 29 551,2 | 35 509,2 |
| O‘rmon xo‘jaligi | 432,7 | 488,5 | 692,7 |
| Baliqchilik xo‘jaligi | 335,8 | 371,7 | 341,7 |

## Viloyatda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o‘sish sur’atlari




**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari** – hisobot davrida fermer xo‘jaliklarida, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

**Ovchilik xo‘jaligi** — ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko‘rsatish shuningdek, parvarishxona va fermalarda hayvonlarni saqlash, ko‘paytirish va davolash xarajatlari hisobga olinadi.

**O‘rmon xo‘jaligi** – faoliyat turi o‘rmon resurslarini takror ishlab chiqarish va o‘rmon resurslaridan foydalanish, xususan o‘rmonchilik, o‘rmonzorlarni barpo etish va yog‘ochni qayta ishlash tarmoqlari uchun binokorlik dumaloq yog‘ochlarini yetishtirish, shuningdek, yovvoyi holda o‘suvchi o‘rmon mahsulotlarini yig‘ish bilan bog‘liq bo‘lgan soha.

**Baliqchilik xo‘jaligi** – baliq ovlash va suv bioresurslarini, akvakulturani saqlash, suv bioresurslaridan olinadigan baliq va boshqa mahsulotlarni yetishtirish va sotish bo‘yicha faoliyat turi.

## Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi




**Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar**

**O‘rmon xo‘jaligi**

**Baliqchilik xo‘jaligi**

2025- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining 97,2 % i dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 1,9 % i o‘rmon xo‘jaligi va 0,9 % i – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keldi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi




**2023- yil yanvar-dekabr**

27 577,1 mlrd so‘m | 104,1 %

**2024- yil yanvar-dekabr**

30 028,4 mlrd so‘m | 100,9 %

**2025- yil yanvar-dekabr**

36 543,6 mlrd so‘m | 104,4 %



**Viloyat bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining yuqori o‘sish sur’atiga ega tumanlar**

1. Do‘stlik 110,2
2. Zafarobod 109,8
3. Sharof Rashidov 107,6





## 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

**Dehqonchilik.** 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 13 393,8 mlrd so‘mni yoki 2024- yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 112,4 % ni, ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmidagi ulushi 38,5 % ni tashkil qildi.

**Hosilni yig‘ib olish**. Hisobot davrida barcha toifadagi xo‘jaliklarda 892 369 tonna (o‘sish sur’ati 120,7 %) jami don, 735 962 tonna (121,9 %) boshoqli don, 643 380 tonna (122,7 %) bug‘doy, 77 603 tonna (105,9 %) makkajo‘xori, 126 557 tonna (102,1 %) kartoshka, 559 047 tonna (99,4 %) sabzavotlar, 430 634 tonna (115,1 %) oziqbop poliz, 111 228 tonna (108,9 %) mevalar va rezavorlar hamda 38 374 tonna (116,2 %) uzum yig‘ib olindi.

| | *Barcha toifadagi xo‘jaliklar* | | *Shu jumladan:* | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | *Fermer xo‘jaliklari* | | *Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari* | | *Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar* | |
| | *tonna* | *o‘sish sur’ati, % da* | *tonna* | *o‘sish sur’ati, % da* | *tonna* | *o‘sish sur’ati, % da* | *tonna* | *o‘sish sur’ati, % da* |
| Don jami | 892 369 | 120,7 | 795 117 | 120,9 | 39 905 | 2,1 m. | 57 347 | 91,7 |
| Boshoqli don | 735 962 | 121,9 | 660 810 | 121,4 | 28 881 | 4,0 m. | 46 271 | 88,4 |
| shundan: bug‘doy | 643 380 | 122,7 | 583 818 | 121,7 | 27 115 | 4,8 m. | 32 447 | 83,7 |
| makkajo‘xori don uchun | 77 603 | 105,9 | 62 882 | 106,7 | 9 116 | 92,9 | 5 605 | 123,2 |
| Kartoshka | 126 577 | 102,1 | 50 133 | 115,4 | 59 386 | 83,2 | 17 058 | 186,1 |
| Sabzavotlar-jami | 559 047 | 99,4 | 226 665 | 97,7 | 278 079 | 90,5 | 54 303 | 2,3 m. |
| Poliz – jami | 430 634 | 115,1 | 221 476 | 112,8 | 159 651 | 120,0 | 49 507 | 110,9 |
| Mevalar va rezavorlar-jami | 111 228 | 108,9 | 54 546 | 133,2 | 48 750 | 100,4 | 7 932 | 62,9 |
| Uzum | 38 374 | 116,2 | 14 076 | 89,2 | 15 824 | 100,6 | 8 474 | 5,6 m. |



## 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish



### HUDUDLAR BO‘YICHA DON YETISHTIRISH








## HUDUDLAR BO‘YICHA MAKKAJO‘XORI, DON UCHUN YETISHTIRISH




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Makkajo‘xori don yetishtirishning eng katta hajmi 62,9 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 81,0 % i fermer xo‘jaliklarida qayd etildi.

Eng kam hajm 5,6 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 7,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda kuzatildi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida o‘tgan yilga nisbatan, fermer xo‘jaliklarida 6,7 % ga o‘sish, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 7,1 % ga kamayish kuzatildi.



# HUDUDLAR BO‘YICHA KARTOSHKA YETISHTIRISH

| Hajmi *(ming tonna)* | Kartoshka | Viloyatning umumiy hajmga nisbatan ulushi, % da |
|---|---|---|
| 1,1 | Forish | 0,8 |
| 2,0 | Yangiobod | 1,6 |
| 2,1 | Jizzax sh. | 1,7 |
| 2,3 | Do‘stlik | 1,8 |
| 4,4 | Zarbdor | 3,4 |
| 4,4 | Zafarobod | 3,5 |
| 4,4 | Zomin | 3,5 |
| 4,6 | Arnasoy | 3,6 |
| 4,8 | Sh.Rashidov | 3,8 |
| 5,7 | Paxtakor | 4,5 |
| 8,4 | Mirzacho‘l | 6,7 |
| 30,4 | Baxmal | 24,0 |
| 52,0 | G‘allaorol | 41,1 |

## Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




Kartoshka yetishtirishning eng katta hajmi 126,6 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 46,9 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etildi.

Eng kam hajm 17,1 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 13,5 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan kuzatildi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida o‘tgan yilga nisbatan, fermer xo‘jaliklarida 15,4 % ga o‘sish, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 16,8 % ga kamayish kuzatildi.



# HUDUDLAR BO‘YICHA SABZAVOTLAR YETISHTIRISH




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Sabzavotlar yetishtirishning eng katta hajmi 278,1 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 49,7 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etildi.

Eng kam hajm 54,3 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 9,7 % i qishloq xo‘jaligi korxonalarida kuzatildi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida o‘tgan yilga nisbatan, fermer xo‘jaliklarida 2,3 % ga kamayish, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida esa 9,5 % ga kamayish kuzatildi.

**Chorvachilik.** Chorvachilik sohasining imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilishi hamda davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan tizimli qo‘llab-quvvatlashlar natijasida qoramollar bosh sonining o‘sishiga, ichki iste’mol bozorlarining chorvachilik mahsulotlari bilan to‘yinishiga imkon yaratdi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida 21 429,6 mlrd so‘mlik chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarilib, o‘sish sur’ati 2024- yilning shu davriga nisbatan 99,8 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 61,5 % ni tashkil etdi.

2026- yilning 1-yanvar holatiga viloyatdagi yirik shohli qoramollar bosh soni 995,6 mingtani (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 101,3 %), shu jumladan sigirlar bosh soni 276,8 mingtani (100,5 %), qo‘y va echkilar bosh soni 2 435,1 mingtani (101,0 %), otlar bosh soni 32,5 mingtani (110,0 %) va parrandalar bosh soni 4 219,3 mingtani (104,9 %) tashkil qildi.



**2026- yil 1-yanvar holatiga xo‘jalik toifalari bo‘yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni**

| | *Barcha toifadagi xo‘jaliklar* | | *Shu jumladan:* | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | *Fermer xo‘jaliklari* | | *Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari* | | *Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar* | |
| | *bosh soni* | *o‘sish sur’ati, % da* | *bosh soni* | *o‘sish sur’ati, % da* | *bosh soni* | *o‘sish sur’ati, % da* | *bosh soni* | *o‘sish sur’ati, % da* |
| Yirik shoxli qoramollar | 995 573,0 | 101,3 | 77 918 | 116,6 | 880 000 | 100,7 | 37 655 | 90,1 |
| Sigirlar | 276 779 | 100,5 | 27 028 | 114,7 | 235 400 | 99,7 | 14 351 | 91,6 |
| Qo‘y va echkilar | 2 435 100 | 101,0 | 484 126 | 102,7 | 1 466 200 | 100,4 | 484 774 | 101,3 |
| Otlar | 33 526 | 110,0 | 8 450 | 102,4 | 17 368 | 112,1 | 7 708 | 114,7 |
| Parrandalar | 4 219 332 | 104,9 | 285 729 | 73,6 | 1 540 200 | 100,7 | 2 393 403 | 113,6 |

Umumiy bosh soniga nisbatan dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 88,4 % ni, fermer xo‘jaliklarida 7,8 % ni tashkil etdi, sigirlar mos ravishda 85,0 va 9,8 % ni, qo‘ylar va echkilar 60,2 va 19,9 % ni, parrandalar 36,5 va 6,8 % ni tashkil qildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA YIRIK SHOHLI QORAMOLLAR YETISHTIRISH

Viloyatda yirik shoxli qoramollar umumiy bosh sonining eng katta ulushi G‘allaorol (17,8 %), Baxmal (17,2 %) va Zomin (12,0 %) tumanlari hissasiga, eng kichik ulushlar esa, Jizzax shahri (1,3 %) va Do‘stlik tumani (3,9 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2024- yilning shu davriga nisbatan eng yuqori o‘sish sur’atlari Paxtakor (105,1 %) va Sharof Rashidov (103,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Soni *(ming bosh)*




### Qoramollar bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




2026- yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- yirik shoxli qoramollarning umumiy boshsoni 995,6 mingtaga yetdi.

- yirik shoxli qoramollar bosh soni 2025- yilning mos davriga nisbatan 13,1 mingtaga (1,3 %) ko‘paydi.

- yirik shoxli qoramollar bosh soning 88,4 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etildi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 16,6 %, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 0,7 % ga o‘sish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA SIGIRLAR YETISHTIRISH

Sigirlar umumiy bosh soning eng katta ulushi Baxmal tumaniga (16,4 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush G‘allaorol (15,2 %) va Zomin (13,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, sigirlarning umumiy bosh sonidagi eng kichik ulushlar Jizzax shahri (1,3 %) va Mirzacho‘l tumani (4,0 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2024-yilning yanvar-dekabriga nisbatan eng yuqori o‘sish sur’ati Paxtakor tumani (117,4 %) da qayd etildi.




**Sigirlar jami bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




2026- yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- sigirlarning umumiy bosh soni 276,8 mingtaga etdi.

- sigirlar bosh soni 2025- yilning 1-yanvariga nisbatan 1,4 mingtaga (0,5 %) ko‘paydi.

- sigirlar bosh soning 85,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida kuzatildi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 14,7 % ga o‘sish kuzatildi.



# HUDUDLAR BO‘YICHA QO‘YLAR VA ECHKILAR YETISHTIRISH

Qo‘y va echkilar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Forish tumani hissasiga (35,9 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush Baxmal (13,3 %) va G‘allaorol (13,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, qo‘y va echkilar umumiy bosh sonidagi eng kam ulush Arnasoy tumani (1,4 %) va Jizzax shahri (1,4 %) da kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2024- yilning yanvar-dekabriga nisbatan eng yuqori o‘sish sur’atlari Arnasoy (113,8 %) va Do‘stlik tumanlarida (111,1 %) qayd etildi.




**Qo‘ylar jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




2026- yilning 1-yanvar holatiga barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 435,1 mingtaga yetdi.

- qo‘y va echkilar bosh soni 2025- yilning1-oktabriga nisbatan 24,9 mingtaga (1,0 %) ko‘paydi.

- qo‘y va echkilar bosh sonining 60,2 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 2,7 % ga o‘sish kuzatildi.



# HUDUDLAR BO‘YICHA PARRANDALAR YETISHTIRISH

Parrandalar umumiy bosh sonining eng katta ulushi G‘allaorol tumani hissasiga (39,1 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulushga Sharof Rashidov (12,6 %) va Zafarobod (9,2 %) tumanlari ega bo‘ldi.

Shu bilan birga, parrandalar umumiy bosh sonidagi eng kam ulush Yangiobod (1,0 %) va Do‘stlik (1,4 %) tumanlarida kuzatildi.

2024- yilning yanvar-dekabriga nisbatan eng yuqori o‘sish sur’ati Zarbdor tumanida (148,1 %) qayd etildi.




**Parrandalar jami bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




2026- yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- Parrandalarning umumiy bosh soni 4 219,3 mingtani tashkil qildi.

- Parrandalar bosh soni 2025- yilning 1-yanvar holatiga nisbatan 195,8 mingtaga (4,9 %) ko‘paydi.

- Parrandalar bosh soning 56,7 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida fermer xo‘jaliklarida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 26,4 % ga kamayish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA OTLAR YETISHTIRISH

Otlar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Forish tumani hissasiga (31,8 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulushga Sharof Rashidov (13,9 %) va Baxmal (12,0 %) tumanlari ega bo‘ldi.

Otlar umumiy bosh sonidagi eng kam ulush Jizzax shahri (0,7 %) va Do‘stlik tumanida (0,8 %) kuzatildi.

Kuzatilayotgan davrda, 2024-yil yanvar-dekabriga nisbatan eng yuqori o‘sish sur’atlari Baxmal (128,6 %) va G‘allaorol (117,9 %) tumanlarida qayd etildi.




### Otlar jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




2026- yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- Otlarning umumiy bosh soni 33,5 mingtaga etdi.
- Otlar bosh soni 2025- yil 1-yanvariga nisbatan 3,1 ming boshga (10,0 %) ko‘paydi.
- Otlar bosh soning 51,8 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga hissasiga to‘g‘ri keldi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 2,4 % ga o‘sish kuzatildi.



## CHORVACHILIK MAHSULOTLARI

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli ko‘mak ko‘rsatib kelinayotganligi chorva mollari va parrandalari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 21 429,6 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 0,2 % ga kamaydi. Jami yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 61,5 % ni tashkil qildi.

## 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

| | *Barcha toifadagi xo‘jaliklar* | | *Shu jumladan:* | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | *Fermer xo‘jaliklari* | | *Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari* | | *Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar* | |
| | *miqdori* | *o‘sish sur’ati, % da* | *miqdori* | *o‘sish sur’ati, % da* | *miqdori* | *o‘sish sur’ati, % da* | *miqdori* | *o‘sish sur’ati, % da* |
| Go‘sht, tirik vazndа, tonna | 244 898,0 | 100,1 | 8 395,0 | 119,3 | 217 040,0 | 96,0 | 19 463,0 | 167,5 |
| Sut, ming tonna | 719 534,0 | 100,7 | 38 595,0 | 2,1 m | 658 078,0 | 95,2 | 22 861,0 | 494,2 |
| Tuxum, ming dona | 423 340,0 | 111,1 | 11 561,0 | 38,4 | 206 947,0 | 101,4 | 204 832,0 | 139,4 |
| Qorako‘l teri, dona | 6 149,0 | 100,2 | 3 268,0 | 91,6 | 534,0 | 100,8 | 2 347,0 | 115,2 |
| Ovlangan baliq, tonna | 12 485,1 | 75,7 | 1 303,7 | 114,0 | 2 673,5 | 100,0 | 8 507,9 | 67,1 |

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vaznda 244,9 ming tonna go‘sht (2024- yilning yanvar-dekabriga nisbatan o‘sish sur’ati 0,1 %), 719,5 ming tonna sut (0,7 %), 423,3 mln. dona tuxum (11,1 %) va 6 149 dona qorako‘l teri (0,2 %) yetishtirilib, 12 485,1 tonna baliq (24,3 % ga kam) ovlandi.



# HUDUDLAR BO‘YICHA GO‘SHT YETISHTIRISH




**Jami go‘sht yetishtirishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




2025- yilning yanvar-dekabr oylarida xo‘jalik toifalari bo‘yicha go‘sht yetishtirishning eng katta hajmi 217,0 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 88,6 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etildi.

Kuzatilgan davrda, go‘sht yetishtirishning eng kam hajmi 8,4 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 3,4 % i fermer xo‘jaliklarida kuzatildi.

2024- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2025- yil yanvar-dekabrida fermer xo‘jaliklarida 19,3 % ga o‘sish, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 4,0 % ga kamayish, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 67,5 % ga o‘sish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA SUT YETISHTIRISH




### Jami sut yetishtirishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




2025- yilning yanvar-dekabr oylarida xo‘jalik toifalari bo‘yicha sut yetishtirishning eng katta hajmi 658,1 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmining 91,4 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etildi.

Sut yetishtirishning eng kam hajmi 22,9 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 3,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda kuzatildi.

2024- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2025- yilning yanvar-dekabrida fermer xo‘jaliklarida 2 martaga o‘sish, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 4,8 % ga kamayish, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 4,9 martaga o‘sish kuzatildi.



# HUDUDLAR BO‘YICHA TUXUM YETISHTIRISH

| Hajmi *(mln. dona)* | | Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi, % da |
|---|---|---|
| 5,4 | Yangiobod | 1,3 |
| 6,4 | Arnasoy | 1,5 |
| 7,6 | Do‘stlik | 1,8 |
| 8,0 | Mirzacho‘l | 1,9 |
| 8,6 | Zafarobod | 2,0 |
| 9,9 | Zarbdor | 2,3 |
| 11,7 | Forish | 2,8 |
| 12,9 | Jizzax sh. | 3,0 |
| 13,4 | Paxtakor | 3,2 |
| 20,7 | Baxmal | 4,9 |
| 26,2 | Sh.Rashidov | 6,2 |
| 84,1 | Zomin | 19,9 |
| 208,4 | G‘allaorol | 49,2 |

**Jami tuxumyetishtirishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




2025- yilning yanvar-dekabr oylarida xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil natijalariga ko‘ra, tuxum yetishtirishning eng katta hajmi 206,9 mln. dona yoki umumiy yetishtirish hajmidan 48,9 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Ko‘rsatib o‘tilgan davrda, tuxum yetishtirishning eng kam hajmi 11,6 mln. dona yoki umumiy yetishtirish hajmidan 2,7 % i fermer xo‘jalilarida kuzatildi.

2024- yilning mos davri bilan solishtirganda, joriy yilning yanvar-dekabrida fermer xo‘jaliklarida 61,6 % ga kamayish, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 1,4 % ga hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 39,4 % ga o‘sish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA BALIQ YETISHTIRISH




### Jami baliq yetishtirishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




2025- yilning yanvar-dekabr oylarida baliq yetishtirishning eng katta hajmi 8 507,9 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 68,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda qayd etildi.

2024- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2025- yilning yanvar-dekabrida fermer xo‘jaliklarida 14,0 % ga, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 32,9 % ga kamayish kuzatilgan bo‘lsa, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida o‘sish kuzatilmadi.